

**XORIJ MAMLAKATLARIDA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISH
VA TARTIBGA SOLISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY
JIHATLARI**

Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich

Namangan davlat texnika universiteti

“Menejment” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Alijanov Baxtiyor Baxodirjon o‘g‘li

Namangan davlat texnika universiteti

“Menejment” yo‘nalishi magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rivojlangan xorij mamlakatlari, xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Shveysariyaning tadbirkorlik faoliyatini boshqarish va tartibga solish borasidagi ilg‘or tajribalari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida har bir modelning o‘ziga xos xususiyatlari, ustun va zaif tomonlari SWOT tahlili asosida ochib berilgan. Muallif tomonidan xalqaro amaliyotdagi detsentralizatsiyalashgan boshqaruv, "Smart Finance" tizimi va infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini milliy iqtisodiyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik, davlat tartibga solishi, boshqaruv modellari, xalqaro tajriba, detsentralizatsiya, innovatsion rivojlanish, "Smart Finance", SWOT tahlil, kichik va o‘rta biznes.*

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительный анализ передового опыта развитых стран, в частности США, Европейского Союза и Швейцарии, в области управления и регулирования предпринимательской деятельности. В ходе исследования на основе SWOT-анализа раскрываются специфические особенности, преимущества и недостатки каждой модели. Автором выдвигаются научно-практические предложения по внедрению в национальную экономику механизмов децентрализованного управления, системы «Smart Finance» и инструментов инфраструктурной поддержки, апробированных в международной практике.*

Ключевые слова: *Предпринимательство, государственное регулирование, модели управления, международный опыт, децентрализация, инновационное развитие, «Smart Finance», SWOT-анализ, малый и средний бизнес.*

Abstract: *This article provides a comparative analysis of the advanced experiences of developed nations, specifically the USA, the European Union, and Switzerland, in the management and regulation of entrepreneurial activities. Throughout the research, the specific features, strengths, and weaknesses of each model are identified based on a SWOT analysis. The author proposes scientific and practical recommendations for integrating*

decentralized management mechanisms, the "Smart Finance" system, and infrastructural support tools, proven in international practice, into the national economy.

Keywords: *Entrepreneurship, government regulation, management models, international experience, decentralization, innovative development, Smart Finance, SWOT analysis, small and medium-sized enterprises (SMEs).*

Kirish. Hozirgi taraqqiyot bosqichida jahon iqtisodiyoti rivojlanishida kichik tadbirkorlikning roli beqiyos darajada ortib bormoqda. Postindustrial jamiyat sharoitida ushbu biznes shaklining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalaridagi transformatsiyalar natijasida uning ahamiyati yanada yuqori nuqtaga ko'tarildi. Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari jamiyatning takror ishlab chiqarish jarayoni tarkibiy tuzilmasining uzviy bo'g'iniga aylanmoqda. Ushbu bo'g'in ishtirokisiz jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyati cheklangandir.

Jahon iqtisodiyotining hozirgi transformatsiya bosqichida tadbirkorlik subyektlarining barqaror o'sishi bevosita samarali institutsional muhit va davlat tomonidan tartibga solishning moslashuvchan iqtisodiy mexanizmlariga bog'liq. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlikni boshqarish tizimi ma'muriy aralashuvni minimallashtirish, soliq-kredit instrumentlari orqali rag'batlantirish hamda xususiy mulk himoyasining huquqiy kafolatlarini mustahkamlashga yo'naltirilgan[3]. Mazkur davlatlarning institutsional yondashuvlarini tadqiq etish va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy tartibga solish modellarini tizimli tahlil qilish, milliy iqtisodiyotlarda tadbirkorlikni rivojlantirishning optimal strategiyalarini belgilashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, xorijiy amaliyotda tadbirkorlik subyektlarini boshqarish nafaqat korxonada ichki samaradorligini oshirish, balki davlat va biznes o'rtasidagi konstruktiv muloqot tamoyillarini takomillashtirishni ham nazarda tutadi. Global raqobat kuchaygan va iqtisodiy munosabatlar murakkablashgan sharoitda, turli iqtisodiy tizimlarga xos bo'lgan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash modellarini qiyosiy o'rganish va ularning o'ziga xos jihatlari ochib berish alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, xorij mamlakatlarining tadbirkorlikni tartibga solishdagi muvaffaqiyatli tajribalarini umumlashtirish va ularning iqtisodiy-institutsional asoslarini fundamental tadqiq etish masalasi mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Asosiy qism. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va raqobat muhitining murakkablashishi sharoitida tadbirkorlik subyektlarini boshqarish mexanizmlari har bir mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish strategiyasidan kelib chiqqan holda

shakllanadi[1]. Rivojlangan xorij mamlakatlarining tadbirkorlikni tartibga solish borasidagi yondashuvlarini tizimlashtirish, ulardagi boshqaruv algoritmlarining o'ziga xos jihatlarini aniqlash va qiyosiy tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi[2]. Ushbu jarayonda samarali institutsional muhitni yaratish faqatgina nazorat funksiyalarini amalga oshirish bilan cheklanib qolmay, balki biznes tuzilmalari uchun qulay huquqiy va iqtisodiy ekotizimni shakllantirish darajasi bilan baholanishi lozim. Tadbirkorlikni tartibga solishning turli iqtisodiy modellariga xos bo'lgan xususiyatlarni xorij mamlakatlari tajribasini o'rganish orqali tahlil etamiz.

Liberal bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikni tartibga solishning Amerika modelida soha doirasidagi olib borilayotgan chora-tadbirlarni o'ziga xos qirralarini ko'rish mumkin.

AQShda tadbirkorlik subyektlarini boshqarish va tartibga solish tizimi federal hamda shtat darajasidagi murakkab me'yoriy iyerarxiyaga asoslanadi. Ushbu modelning fundamental asosi — biznes erkinligini ta'minlash bilan birga, ijtimoiy va huquqiy mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni saqlashdir[4].

Institutsional boshqaruv va mehnat munosabatlari. AQSh Mehnat vazirligi (DOL) tizimida 180 dan ortiq qonunlarning ijrosi nazorat qilinishi tadbirkorlik muhitida inson kapitalini muhofaza qilishning ustuvorligini ko'rsatadi. Bu yerda boshqaruv mexanizmi nafaqat nazorat, balki tadbirkorlarga mehnat qonunchiligini (ish haqi standarti, ijtimoiy ta'minot, diskriminatsiyaga yo'l qo'yimaslik) mukammal o'rgatish orqali ma'muriy xatolar xavfini kamaytirishga yo'naltirilgan.

Ekologik va marketing standartlari. AQSh modelida tadbirkorlikning ijtimoiy mas'uliyati ekologik xavfsizlik (EPA agentligi nazorati ostida) va iste'molchilar huquqini himoya qilish bilan o'lchanadi. "Toza havo to'g'risida"gi va "Vijdonli qadoqlash va markalash to'g'risida"gi qonunlar tadbirkorlik subyektlari uchun nafaqat cheklov, balki bozorning shaffofligi va haqqoniyligini ta'minlovchi institutsional filtr vazifasini o'taydi. Bu esa korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy rag'batlantirish va davlat ko'magi. AQSh modelining eng o'ziga xos jihati — "Kichik biznes ma'muriyati (SBA)" orqali amalga oshiriladigan institutsional yordamdir. Davlat iqtisodiy drayver sifatida quyidagi vositalardan samarali foydalanadi:

- moliyaviy instrumentlar - past foizli kreditlar, pul grantlari va kredit kafolatlari;
- infratuzilmaviy mas'uliyat - biznes uchun o'ta qimmatlik qiladigan yirik loyihalarni (aeroportlar, energetika, aloqa) davlat tomonidan moliyalashtirilishi;
- inson kapitaliga investitsiya - malakali kadrlar tayyorlash dasturlari orqali biznesning intellektual ehtiyojini qondirish.

Umumiy qilib aytganda AQSh modeli — nazorat va ko'makning o'zaro uyg'unlashgan kompleks mexanizmidir. Unda tadbirkorlikni boshqarish faqat ma'muriy buyruq emas,

balki qulay infratuzilma yaratish va bozor qoidalarining adolatli ijrosini ta'minlash orqali amalga oshiriladi[5].

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikni boshqarishning Yevropa modelida ham tadbirkorlikni boshqarish va tartibga solishda o'ziga xoslikni ko'rish mumkin.

Yevropa Ittifoqi (YeI) mamlakatlarida tadbirkorlik subyektlarini boshqarish tizimi "o'rta sinf"ni shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning asosi hisoblanadi. Amerika modelidan farqli o'laroq, Yevropa yondashuvi institutsional barqarorlik va iqtisodiy dinamika o'rtasidagi "oltin o'rtalik"ni topishga yo'naltirilgan.

Klassifikatsiya va institutsional moslashuvchanlik qirralariga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, YeI tomonidan 2024-yil 1-yanvardan joriy etilgan yangi mezonlar tadbirkorlikni tartibga solishda moslashuvchanlik tamoyili ustuvorligini ko'rsatadi. Xususan, kichik korxonalar uchun yillik aylanma chegarasining 12,5 mln yevrogacha oshirilishi, inflyatsion bosim sharoitida korxonalarining imtiyozli maqomini saqlab qolishga qaratilgan strategik boshqaruv qaroridir. YeI modelida "xodimlar soni" (mikro – 10 gacha, kichik – 50 gacha, o'rta – 250 gacha) iqtisodiyotning moslanuvchanligini ta'minlovchi asosiy indikator bo'lib qolmoqda.

Yevropa mamlakatlarida kichik biznesni boshqarishning bir qator fundamental xususiyatlari mavjud bo'lib, ular tizimli samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi:

— mulk va boshqaruvning uyg'unligi - mulkdorning bevosita boshqaruvda ishtiroki va shaxsiy mas'uliyati;

— norasmiy munosabatlar ekotizimi - iste'molchilar va hamkorlar bilan o'rnatilgan individual (shaxsiy) aloqalar tizimi;

— oilaviy tadbirkorlik ustuvorligi - biznesning avloddan-avlodga o'tishi va ichki kapital hisobiga rivojlanishi;

— davlatlar kesimidagi makroiqtisodiy natijadorlik. Statistika tahlillar shuni ko'rsatadiki, YeI mamlakatlarida tadbirkorlikni tartibga solish siyosati "Avval kichiklar haqida o'yla" (Think Small First) tamoyili asosida qurilgan, ma'lumotlar tahlili quyidagi strategik yo'nalishlarni ochib beradi:

— Italiya modelida jami bandlikning 76,2% va YaIMning 68% qismi aynan ushbu sektor hissasiga to'g'ri kelishi "hududiy klasterlar" boshqaruvining yuksak samaradorligidan dalolat beradi;

— Germaniya modeli (Mittelstand)da bandlikning 56,5 foizini ta'minlovchi ushbu tizim ko'proq yuqori texnologik va eksportga yo'naltirilgan o'rta korxonalariga tayanadi;

— Fransiya modelida esa ilmiy-tadqiqot ishlari uchun soliq imtiyozlari orqali innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantiradi.

"Aqlli moliyalashtirish" (Smart Finance) tizimiga o'tish bo'yicha 2016–2025-yillar

oralig'ida Yevropa davlatlari tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning sifat jihatdan yangi bosqichiga o'tdi. Endilikda asosiy urg'u oddiy kreditlashdan raqamli transformatsiya, "yashil" texnologiyalar va venchur moliyalashtirishga qaratilmoqda. YEI doirasida qo'shimcha qiymat solig'i tizimlarining muvofiqlashtirilishi va Yevropa investitsiya jamg'armasi orqali bilvosita kafolatlar berilishi ma'muriy to'siqlarni kamaytirish va kichik biznesning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha boshqaruv strategiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini isbotlaydi.

Shveysariya iqtisodiyotining barqarorligi bevosita kichik va o'rta tadbirkorlik (KO'B) subyektlarining samarali faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ushbu mamlakatda boshqaruv tizimi o'zining markazlashmaganligi va "sifat miqdordan ustun" tamoyiliga asoslangani bilan ajralib turadi.

Shveysariya modelining kantonal boshqaruv va soliq raqobatidagi o'ziga xosligi shundaki, tadbirkorlikni tartibga solish federal hukumatdan ko'ra ko'proq ma'muriy birliklar — kantonlar ixtiyoridadir. Uch bosqichli soliq tizimi (federal, kantonal va munitsipal) hududlar o'rtasida ijobiy raqobatni yuzaga keltirib, ma'muriy yukni minimallashtiradi. Har bir kantondagi Rivojlanish agentliklari tadbirkorlar bilan bevosita muloqot o'rnatib, innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi loyihalarga 10 yilgacha soliq imtiyozlari taqdim etishi mumkin.

Shveysariyada moliyaviy strategiya va davlat kafolatlariga asoslangan tadbirkorlikni moliyaviy boshqarishda tijorat banklari dominantlik qilsa-da (kreditlarning 81 foizi KO'B sektoriga to'g'ri keladi), davlat "Tijorat kafolatlari" instrumenti orqali bank va real sektor o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. 2022–2025-yillar prognozlariga ko'ra, davlat kafolatlari hajmining 450 mln frankkacha o'sishi hukumatning tadbirkorlik tavakkalchiliklarini o'z zimmasiga olish darajasi ortganini ko'rsatadi.

Shveysariyaning differentsiallashgan qo'llab-quvvatlash dasturlari bo'yicha KO'B strategiyasi shunchaki resurs ajratish emas, balki tarkibiy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan:

- hududiy muvozanat - iqtisodiy past rivojlangan va tog'li hududlardagi korxonalar uchun maxsus imtiyozli foiz stavkalari;
- inson kapitaliga investitsiya - innovatsion loyihalarda nafaqat texnik xarajatlar, balki tadqiqotchilarning ish haqi ham subsidiyalanishi;
- ijtimoiy drayver - ishsiz shaxslarning xususiy tadbirkorlikka o'tishini rag'batlantirish uchun 200 ming frankkacha kafolatlar berilishi.

Demak, Shveysariya modeli tadbirkorlikni boshqarishda davlatning "strategik ko'makchi" rolini ochib beradi. 2025-yilga kelib mikrokorxonalar ulushining 89,8 foizga yetishi va jami bandlikning 70 foizi aynan KO'B sektorida ekanligi, ushbu modelning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi yuksak samaradorligini isbotlaydi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan modellar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlikni tartibga solishning yagona "universal" formulasi mavjud emas, balki har bir tizim o'z iqtisodiy maqsadlari va institutsional sharoitlariga moslashgan.

Ushbu uchta model (AQSh, YeI va Shveytsariya) uchun umumiy jihat shundaki, ularning barchasida davlat tadbirkorlikni iqtisodiy o'sish, innovatsiya va bandlikning asosiy drayveri deb hisoblaydi. Shuningdek, ekologik standartlar ("yashil iqtisodiyot") va raqamli transformatsiya barcha tizimlar uchun majburiy institutsional talabga aylangan.

Xususiyl jihatlarl esa quyidagi qiyosiy jadvalda o'z ifodasini topgan.

1-jadval

Xorij mamlakatlarida tadbirkorlikni boshqarish modellarining qiyosiy tahlili

Tahlil mezonl	AQSh modeli	YeI (Germaniya, Italiya) modeli	Shveytsariya modeli
Boshqaruv xarakteri	Liberal, bozor erkinligiga urg'u berilgan.	Ijtimoiy yo'naltirilgan, klasterli yondashuv.	Detsentralizatsiya (kantonal mustaqillik).
Davlatning roli	Infratuzilma yaratuvchi va raqobatni himoya qiluvchi.	Kichik biznesni yirik korporatsiyalardan himoya qiluvchi.	Innovatsiya va sifatni rag'batlantiruvchi "strategik sherik".
Moliyalashtirish	Grantlar va venchur kapitali ustuvor.	Bank kreditlari va davlat subsidiyalari.	Tijorat banklari va kuchli davlat kafolatlari tizimi.

Jadval ma'lumotlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlikni boshqarishning xorijiy modellari o'rtasidagi asosiy tafovutlar davlatning iqtisodiyotdagi ishtirok etish darajasi va institutsional vositalarning yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Agar AQSh modelida asosiy urg'u bozorning o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlariga va tadbirkorlik tavakkalchiligini rag'batlantirishga (venchur moliyalashtirish orqali) qaratilgan bo'lsa, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida (Germaniya, Italiya) boshqaruv tizimi ko'proq ijtimoiy kafolatl va hududiy klasterlar hamkorligiga tayanadi. Shveytsariya tajribasi esa ushbu ikki yondashuvdan farqli o'laroq, boshqaruvning yuqori darajadagi detsentralizatsiyalashgan (kantonal) xarakteri bilan ajralib turadi, bunda har bir hudud o'zining iqtisodiy ixtisoslashuvidan kelib chiqib, tadbirkorlik subyektlari uchun individual va moslashuvchan "soliq-kredit" paketlarini shakllantiradi. Bu esa xalqaro amaliyotda tadbirkorlikni tartibga solishning samaradorligi ma'muriy bosimni kamaytirish va hududiy boshqaruv organlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi.

2-jadval

Modellarning ustun va zaif tomonlari qiyosiy tahlili (SWOT)

Tadbirkorlik modeli	Ustun tomonlari (Strengths)	Zaif tomonlari (Weaknesses)
AQSh modeli	Yuqori moslashuvchanlik va innovatsiyalarni tezkor tijoratlashtirish. Biznesni boshlashdagi minimal byurokратиya. "Startup" ekotizimining mukammal rivojlanganligi.	Ijtimoiy himoya tizimining nisbatan pastligi. Inqiroz davrida kichik korxonalarining tashqi bozor konyunkturasiga haddan tashqari bog'liqligi.
Yevropa Ittifoqi modeli	"Think Small First" tamoyili asosidagi kuchli institutsional himoya. Tadbirkorlikning ijtimoiy barqarorlik va bandlik bilan uzviy bog'liqligi.	Yuqori soliq yuki. Texnik standartlarning haddan tashqari qat'iyiligi (yangi subyektlar uchun "kirish to'siqlari" mavjudligi).
Shveysariya modeli	Hududiy boshqaruv mustaqilligi va kantonlararo ijobiy soliq raqobati. "Sifat miqdordan ustun" tamoyili asosidagi yuqori raqobatbardoshlik.	Ichki bozor ko'lamining cheklanganligi. Yuqori texnologik kadrlar tanqisligi yuzaga kelish xavfi.

Mazkur SWOT tahlili shuni ko'rsatadiki, AQSh modeli dinamik o'sishni, Yevropa Ittifoqi modeli ijtimoiy kafolatlarni, Shveysariya modeli esa sifat va hududiy mustaqillikni ustuvor deb biladi. O'zbekiston sharoitida ushbu modellarning eng samarali jihatlarini sintez qilish, xususan, Shveysariyaning kantonlararo raqobat va YeIning institutsional himoya mexanizmlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida aniqlangan tizimli muammolarni ta'kidlab o'tadigan bo'lsak, xorij tajribasini qiyosiy tahlil qilish jarayoni milliy iqtisodiyotda tadbirkorlikni boshqarish va tartibga solish tizimida quyidagi fundamental muammolar mavjudligini ko'rsatadi:

1. Institutsional detsentralizatsiyaning pastligi. Shveysariya tajribasidan farqli o'laroq, mamlakatimizda tadbirkorlikni tartibga solishda hududiy organlarning (hokimliklar va hududiy agentliklarning) moliyaviy va soliq imtiyozlari berish bo'yicha mustaqilligi yetarli emas. Bu esa hududlararo ijobiy iqtisodiy raqobatning shakllanishiga

to'sqinlik qilmoqda.

2. "Smart Finance" mexanizmlarining sustligi. Yevropa Ittifoqi modellarida ko'rilgan venchur moliyalashtirish va davlat kafolatlari orqali xavf-xatarlarni sug'urtalash tizimi bizda hali to'liq shakllanmagan. Tadbirkorlar haligacha asosan an'anaviy bank kreditlariga bog'lanib qolmoqda.

3. Infratuzilmaviy mas'uliyat taqsimoti. AQSh modelida ko'rilganidek, davlatning biznes uchun yuqori xarajatli infratuzilmani (logistika, texnoparklar) to'liq o'z zimmasiga olishi borasida institutsional bo'shliqlar mavjud, bu esa yangi subyektlar uchun "ishga tushirish" xarajatlarini oshirmoqda.

4. Sifat mezonlarining ustuvor emasligi. Ko'p hollarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda loyihaning innovatsion tarkibidan ko'ra, faqat "ish o'rnlari soni"ga urg'u beriladi (Shveysariyada esa sifat va innovatsiya birinchi o'rinda).

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarini samarali tartibga solish uchun, avvalo, boshqaruvning konseptual strategiyalarini to'g'ri shakllantirish lozim. Xususan, strategik boshqaruvga ilmiy yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari va ushbu jarayonning nazariy asoslari tadbirkorlik muhitini barqarorlashtirishda fundamental ahamiyatga ega [6]. Tadbirkorlik faoliyatida boshqaruv strategiyasini shakllantirish nafaqat ichki resurslarni optimallashtirish, balki tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashish usullarini ham qamrab oladi [7].

Tadbirkorlikni rivojlantirishning xorijiy modellarida (masalan, AQSh va YeI tajribasida) ko'rilgan infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari milliy iqtisodiyotda biznes-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda zamonaviy biznes-kommunikatsiya infratuzilmasining mavjudligi xalqaro bozorda korxonalarining raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [9].

Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda kichik va o'rta biznes subyektlarini eksportga yo'naltirish strategik ustuvorlik sifatida belgilangan. Bu borada korxonalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimidagi mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish, rivojlangan davlatlar modelini milliy sharoitga samarali adaptatsiya qilish imkonini beradi [8].

Xulosa va takliflar. Rivojlangan xorij mamlakatlarining tadbirkorlik faoliyatini boshqarish va tartibga solish borasidagi institutsional mexanizmlarini tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bevosita ilg'or xalqaro standartlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirgan holda joriy etishni taqozo etadi. AQSh, Yevropa Ittifoqi va Shveysariya modellarining o'ziga xos ijobiy jihatlari, xususan, boshqaruvning detsentralizatsiyalashgan xarakteri, "aqlli moliyalashtirish" tizimi va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash drayverlari mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini

tubdan yaxshilash uchun konseptual asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, milliy iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida tadbirkorlik subyektlarini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Institutsional vakolatlarni detsentralizatsiya qilish (Shveysariya modeli asosida). Hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida, mahalliy davlat hokimiyati organlariga innovatsion va eksportga yo'naltirilgan tadbirkorlik subyektlari uchun mustaqil ravishda "mahalliy soliq imtiyozlari" paketini joriy etish vakolatini berish. Bu hududlar o'rtasida tadbirkorlar uchun jozibador muhit yaratish bo'yicha ijobiy iqtisodiy raqobatni yuzaga keltiradi.

2. "Smart Finance" – intellektual moliyalashtirish tizimini joriy etish (YeI tajribasi asosida). Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armalari faoliyatini transformatsiya qilish, ya'ni mablag'larni nafaqat an'anaviy kredit, balki yuqori texnologik loyihalar uchun venchur moliyalashtirish va bilvosita kafolatlar (guarantees) ko'rinishida taqdim etish. Bunda loyihaning "innovatsionlik darajasi" va "yashil" texnologiyalarga mosligi asosiy baholash mezonini bo'lishi lozim.

3. Infratuzilmaviy sheriklik mexanizmini kengaytirish (AQSh modeli asosida). Yangi tashkil etilayotgan kichik sanoat zonalari va texnoparklarda davlat hisobidan nafaqat kommunikatsiya tarmoqlarini tortish, balki tayyor "raqamli infratuzilma" (yuqori tezlikdagi aloqa, ma'lumotlar markazi va bulutli xizmatlar) tizimini yaratish. Bu tadbirkorning ish boshlashdagi (start-up) kapital xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

4. Sifat va innovatsion natijadorlik monitoringini yo'lga qo'yish. Tadbirkorlikni tartibga soluvchi organlar faoliyatida miqdor ko'rsatkichlaridan (subyektlar soni) sifat ko'rsatkichlariga (qo'shilgan qiymat hajmi, eksport salmog'i, patentlar soni) o'tish metodologiyasini ishlab chiqish. Shveysariya tajribasiga tayanib, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini (R&D) amalga oshiruvchi kichik korxonalar uchun tadqiqotchi xodimlar ish haqining bir qismini davlat tomonidan subsidiyalash mexanizmini joriy etish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, xalqaro tajribada muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan boshqaruv modellarining eng samarali elementlarini milliy iqtisodiyotga integratsiya qilish tadbirkorlik subyektlarining nafaqat miqdoriy o'sishini, balki sifat jihatidan transformatsiyalashuvini ham ta'minlaydi. Yuqorida ilgari surilgan takliflarning hayotga tatbiq etilishi mamlakatimizda tadbirkorlikni tartibga solishning ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan voz kechib, biznes va davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli strategik sheriklik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va innovatsion g'oyalarni yuqori qo'shilgan qiymatga aylantirishning asosiy omili bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Эргашева, Ф. И. (2023). ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ЖАРАЁНИДА БОШҚАРУВНИНГ АСОСИЙ МАСАЛАЛАРИ. FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS", 14(1).

2. Эргашева, Ф. И. (2023). БОШҚАРУВ ЖАРАЁНИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: МУММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР. FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS", 14(1).

3. Nabijanovich, D. B. (2023). BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA BOSHQARUVNI TARTIBGA SOLISH USULLARI. NIDERLAND" INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION", 14(1).

4. Nabijanovich, D. B. (2023). BOSHQARUV JARAYONI MAQSADLARI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR. NIDERLAND" INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION", 14(1).

5. Nabijanovich, D. B., & Axadbek o'g'li, R. A. (2023, May). BOSHQARUVNING UMUMIY VA ANIQ FUNKTSIYALARI: MOHIYATI VA TURKUMLASH MEZONLARI. In " CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES (Vol. 9, No. 1).

6. Nabijanovich, D. B. (2023, May). STRATEGIYA VA STRATEGIK BOSHQARISH: ILMIY YONDASHUVLAR VA XUSUSIYATLAR. In " CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES (Vol. 9, No. 1).

7. Nabijanovich, D. B. (2023, May). TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA BOSHQARUV STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. In " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE (Vol. 8, No. 1).

8. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТЬ В НАУКУ № 3 (27) 2019.

[https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)

9. Dedajanov B.N. Alijanov B.B. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda biznes-

European science international conference:

THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD

kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish ahamiyati. Volume 2, Issue 4
CONFERENCE OF MODERN SCIENCE &
PEDAGOGY/WASHINGTON/THE USA. 503-509.

<https://tjst.org/index.php/USA/issue/view/31>

